



## BOLALARNI ZUFUNUN SHAXS ETIB RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING ZARURATI

*Sultanova N.*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Tayanch soʻz:** Maktabgacha ta'lim yoshi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, sun'iy intellekt, ta'lim-tarbiya, intellectual, raqamli ta'lim, interfaol metodlar, STEAM, integratsiya, kompleksli ta'lim.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, организация дошкольного образования, искусственный интеллект, образование, интеллектуальное, цифровое образование, интерактивные методы, STEAM, интеграция, комплексное образование.

**Key words:** preschool education age, preschool education organization, artificial intelligence, education, intellectual, digital education, interactive methods, STEAM, integration, complex education.

Bolalarning intellektual rivojlanishida maktabgacha yosh eng muhim bosqich sanaladi. Ayni shu davrga kelib bolada ko'pgina o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Shu bilan bir qatorda bolalarning irodasi, diqqati, tashabbuskorligi, nutqi va ongi, zehni ham aynan shu davrda shakllanib, takomillashadi.

Shu tomonlarini inobatga olgan holda, hozirgi kunda ta'lim-tizimida zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini tadbiq etish bilan bolalarni har jihatdan ya'ni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va intellektual rivojlanishlarini ta'minlash, maktab ta'limiga sifatli tayyorash darajasini oshirish yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ho'sh buning uchun qanday samarali ishlarni amalga oshirish mumkin? Eng avvalo bugungi jadal ko'rsatgichlar bilan o'sayotgan tezkor davrning yoshlari ham zamon bilan ham nafas yashashlari va fikr yuritmog'i darkor deb o'ylayman. Zamon bilan hamohang yashamoq uchun albatta, bugunning talablarini bajarmog'i zaruratdir. Bugunning talabi esa bu-pedagogik dasturiy vositalar, onlayn ta'lim platformalari, interfaol multimedial va raqamli ta'lim resurslaridir. Bularni bir so'z bilan aytganda sun'iy intellekt deb ataymiz. Shu o'rinda bir o'rinli savol



tug'uladi. Ho'sh sun'iy intellektning o'zi nima? Va maktabgacha ta'lim tizimiga qanday foydali tomonlari bor? Sun'iy intellekt deganda raqamli texnologiyalar yordamida inson ongining ayrim jihatlari misol uchun, mantiqiy fikrlash, muammolarni yechish, mulohaza qilish, modellashtirish texnologiyasini tushunamiz. So'ngi yillarda sun'iy intellekt barcha sohalarga jadallik bilan kirib kelmoqda. Masalan; Maktabgacha ta'lim tizimiga sun'iy intellekt STEAM ta'lim texnologiyasi asosida kirib keldi. Ya'ni STEAM texnologiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalar ixtirochi hamda kashfiyotchilardек o'ylashga, tadqiqotchi sifatida izlanishlar olib borishga, muhandislardек loyiha ishlarini tuzishga, matematik sifatida analitik fikrlashni turli matematik o'yinlar bilan o'rgatishga qaratilgan texnologiya bo'lib, shunday qiziq hamda natijador.

STEAM texnologiyasi o'quv natijadorligiga ta'siri qanday? Uning muhim jihati shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. O'rganish paytida bolalar nafaqat aqli bilan, balki qo'llari bilan ham bir vaqtda ishlashlari kerak. STEAM texnologiyasining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va shu vaqtning o'zida egallangan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladilar. Bu esa o'z o'rnida olingan bilim bolaning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolinishiga va yana ham mustahkamlanishiga asos bo'ladi. Shuning uchun, ular o'sib-ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bundan shuni anglash mumkinki, STEAM ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar. Bugun erta bo'lmaganidek, erta ham bugun bo'lmaydi shuni biz bugun to'liq nglagan holda kelajagimizni egalarini hozirdanoq ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidanoq kasbga va hunarga yo'naltirmog'imiz darkor. Yana bir narsani katta ehtimol bilan ayta olamanki, kelajakda bolalarimiz bugungi kunda bizga ma'lum bo'lmagan yangi – yangi kasblarni egallashadi, chunki zamon shiddat bilan rivojlanayotgan, kompyuter texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, onlayn ta'lim platformalari, interfaol multimedial va raqamli ta'lim resurslar takomilshib borar ekan o'z-o'zidan yangi kasblarga ehtiyoj tug'uladi va paydo bo'ladi. Demak, farzandlarimizga oldinni ko'ra olgan holda turli ta'lim turlarini birlashtirgan holda kompleks ta'limni qo'llagan holda ta'lim jarayonlarini



maktabgacha ta'lim davridan olib borishimiz maqsadli deb hisoblayman. Bunda esa STEAM yondashuvi katta imkoniyatlar eshigini ochadi. STEAM turli ta'limning kompleks birlashuvi bo'lib, unda S-fan, T-texnologiya, E-mihandislik, A-san'at, M-matematika kabi fanlarning birikuvidan tashkil etilgan texnologiya bo'lib, mazkur fanlarning o'zaro integratsiyalashuvi ta'limning uzluksizligini va bolalarning guruhlarda jamoa bo'lib muloqotga kirishish qobiliyatini va fikrlarni jamlash qolaversa o'z orzulari tomon olg'a intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Jadallik bilan rivojlanayotgan dunyo ta'lim olish va yangiliklar, ixtirolar yaratish uchun qiyin vazifalar qo'yadi. Bolalarni jamiyatdan ortda qolmasligi, o'z fikr-mulohazasini bemalol ayta olishi va isbotlay olishi, mustaqil erkin, zufunun shaxslar bo'lishi uchun sun'iy intellect texnologiyalari bilan ishlashga qaratilgan maxsus intellektual qobiliyatlarni talab qilmoqda.

STEAM texnologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarga hodisalarning o'zaro munosabatlarini aniqlash va tushunish, yangi, g'ayrioddiy va juda qiziqarli narsalarni kashf qilish imkonini beradi. Yangi narsalar bilan tanishishni kutish qiziqish va kognitiv faoliyatni rivojlantiradi; o'zingiz uchun qiziqarli vazifani aniqlash, usullarni tanlash va uni hal qilish uchun algoritm yaratish, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati - muhandislik fikrlash uslubini ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat qobiliyatini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelajakda kasb tanlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi. STEAM ta'lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun bir vaqtni o'zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg'unligini ta'minlaydilar. Bunda "Aql va qo'l" iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko'rib tezda uqib, o'zlashtirib oladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning 3-7 yosh davrida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM ta'lim texnologiyasida foydalanish juda qo'l keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning eng qulay davri ekanligini isbotlaydilar. Bola hayotining maktabgacha yosh davrida shaxsiy intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Uch yoshga to'lgach, bola hissiy faoliyati, beixtiyor diqqat-e'tibori va og'zaki nutqi, kommunikativ ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bola dunyoni o'z gacha qiziqish bilan o'rgana boshlaydi, tabiat va ijtimoiy hayotning eng oddiy hodisalari haqidagi fikrlarini modellashtiradi. O'yin faoliyati va nutqiy muloqoti bilish va idrok etish jarayoni uchun asos bo'lib xizmat qiladi: o'zi va atrofdagi odamlar, tengdoshlari, makon va vaqt, rang va shakl, butun va qism.



Xulosa o‘rnida shuni aytishni joiz deb bildikki, bugungi kunimiz kechagi kunimizdan tubdan farq qiladi, yana shuni ham bemalol ayta olamanki, ertangi kunimiz ham bugundanda o‘zgacharoq va natijadorroq bo‘ladi. Chunki bugun biz jahon amaliyotlaridan keng foydalanib har bir jabhalarda tubdan yangilanishlar va islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Biz bugun shunday katta o‘zgarishlar qilayotgan ekanmiz, va shu yangilanishlar, islohotlar bilan farzandlarimizga ta’lim-tarbiya berar ekanmiz, ulardan bugungi berayotgan mehnatimizning mevalarini kutamiz albatta. Buning uchun biz pedagoglar tinmay izlanmog‘imiz, o‘z sohamizga innovatsiyalar olib kirmog‘imiz va innovatsion darslarimiz orqali bolalarni zufunun shaxslar etib yetishtirmoqni o‘zimizning ulkan maqsadimiz va pirovard vazifamiz etsakgina kelajagimiz ulug‘vor, istiqbolimiz yorqin bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Yusupbekov N. R. Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish . N. R. Yusupbekov. - Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-572 b.
2. Nazarov X. N. Robotlar va robototexnik tizimlar. Darslik. -»MASHHUR PRESS», 2019, -236 b.
3. Maxmudazimova Yulduz Raxmatovna. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. TAMADDUN-Toshkent-2022.
4. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, N. M. Kayumova Maktabgacha pedagogika”.- T., “Tafakkur”. 2019

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni zufunun shaxs etib rivojlantirishda sun‘iy intellect vositalaridan foydalanishning afzalliklar va ularni bolalar ta’lim-tarbiyasiga ijobiy ta’sir qilishi, bolalardagi zufunun qobiliyatlarni topish va sayqallashdagi beqiyos roli haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о преимуществах использования средств искусственного интеллекта в развитии личности детей дошкольного возраста и их положительном влиянии на образование детей, о несравненной роли интеллекта детей в обнаружении и совершенствовании способностей.

#### SUMMARY

This article provides information about the advantages of using artificial intelligence tools in the development of personality of children of preschool age and their positive impact on children’s education, the incomparable role of intelligence in children in finding and polishing abilities.